



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EISSN 2181-2187

12 (86) 2025

Сопредседатели редакционной коллегии:

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ
Б.З. АБДУСАМАТОВ
У.О. АБИДОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
А.С. ИЛЪЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
М.Р. МИРЗОЕВА
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОВЕВ
С.А. ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Ш.Т. САЛИМОВ
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Б.Б. ХАСАНОВ
Д.А. ХАСАНОВА
Б.З. ХАМДАМОВ
Э.Б. ХАККУЛОВ
Г.С. ХОДЖИЕВА
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
С.Н. ГУСЕЙНОВА (Азербайджан)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ NEW DAY IN MEDICINE

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

12 (86)

www.bsmi.uz
https://newdaymedicine.com E:
ndmuz@mail.ru
Тел: +99890 8061882

2025 декабрь

УДК 616-006.6:614.1(575.1)

SUYAK HAVFLI O'SMALARINING RESPUBLIKADAGI EPIDEMIOLOGIK HOLATI

Abdikarimov X.G. <https://orcid.org/0009-0008-6490-8831>
Gafur-Axunov M.A. <https://orcid.org/0000-0002-1593-7504>
Nasirov S.K. <https://orcid.org/0009-0005-1069-4645>
Davletov R.R. <https://orcid.org/0000-0002-9191-4128>
Nurjabov A.I. <https://orcid.org/0000-0002-8026-9944>
Asameddinov N.K. <https://orcid.org/0000-0001-5225-1539>

Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya Ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Uzbekistan g.
Tashkent, ul. Farobi, 383 tel: +998(71) 246-05-13 Email: info@cancercenter.uz

✓ Rezyume

Tadqiqotning maqsadi: O'zbekiston Respublikasida suyak havfli o'smalari (suyak sarkomalari) bo'yicha kasallanish va o'lim ko'rsatkichlarini tahlil qilish.

Natijalar: O'zbekiston Respublikasida har yili 25 000 dan ortiq yangi o'sma holatlari qayd etiladi va ularning 320 dan ortig'i (1,3%) suyak o'smalariga to'g'ri keladi. So'nggi 9 yil ichida suyak o'smalarining yangi holatlari hamda o'lim holatlari soni kamayish tendensiyasiga ega. Shuningdek, har 100 000 aholiga to'g'ri keladigan kasallanish va o'lim ko'rsatkichlari ham yillar davomida erkaklar va ayollar o'rtasida pasaygan. Suyak o'smalariga chalingan bemorlarning sezilarli ulushi 20–44 yoshdagi - nisbatan yosh aholi orasida kuzatiladi. O'zbekistonda suyak o'smasi tashxisi bilan ro'yxatda turgan bemorlar soni qariyb 3 000 nafarni tashkil etadi.

Xulosa: Statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, onkologik kasalliklar umumiy tuzilmasida suyaklarning havfli o'smalari 22-o'rinni, o'lim sabablarida esa 20-o'rinni egallaydi. Tadqiqot davrida suyak o'smalariga chalinish va o'lim ko'rsatkichlari kamayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Turli yosh toifalarida onkologik kasallik bilan kasallanish darajalarida sezilarli farq qayd etilgan.

Kalit so'zlar: Suyak yomon sifatli o'smalari, kasallanish, o'lim.

ЭПИДЕМИОЛОГИЯ ЗЛОКАЧЕСТВЕННЫХ ОПУХОЛЕЙ КОСТЕЙ В РЕСПУБЛИКЕ

Абдикаримов Х.Г. <https://orcid.org/0009-0008-6490-8831>
Гафур-Аксунов М.А. <https://orcid.org/0000-0002-1593-7504>
Насиров С.К. <https://orcid.org/0009-0005-1069-4645>
Давлетов Р. Р. <https://orcid.org/0000-0002-9191-4128>
Нуржабов А.И. <https://orcid.org/0000-0002-8026-9944>
Асамеддинов Н.К. <https://orcid.org/0000-0001-5225-1539>

Республика специализированной онкологии и радиологии Научно-практический медицинский центр
Узбекистан г. Ташкент, ул. Фароби, 383 +тел: 998(71) 246-05-13
e-mail: info@cancercenter.uz

✓ Резюме

Цель исследования: провести анализ показателей заболеваемости и смертности от злокачественных новообразований костей в Республике Узбекистан.

Результаты: ежегодно в Узбекистане регистрируется более 25 000 новых случаев злокачественных новообразований (ЗНО) и из них более 320 (1,3%) приходится на ЗНО костей. За последние 9 лет число новых и смертных случаев от ЗНО костей имеет тенденцию к снижению, также как и показатели заболеваемости и смертности на 100 000 населения с годами снижаются среди обоих полов. Удельный вес больных с ЗНО костей среди обоих полов достаточно высокий в достаточно молодом возрасте 20-44 лет. В Республике Узбекистан на учете состоит практически 3 000 больных с диагнозом ЗНО костей.

Выводы: Анализ статистической информации показал, что в общей структуре онкологических заболеваний ЗНО костей занимает 22 позицию, а в структуре смертности 20. Заболеваемость и смертность от ЗНО костей за исследуемый период имел тенденцию к снижению. В различных возрастных категориях онкологической заболеваемости отмечались существенные различия.

Ключевые слова: Злокачественные новообразования костей, заболеваемость, смертность.

EPIDEMIOLOGY OF BONE MALIGNANT TUMORS IN THE REPUBLIC

Abdikarimov X.G. <https://orcid.org/0009-0008-6490-8831>

Gafur-Axunov M.A. <https://orcid.org/0000-0002-1593-7504>

Nasirov S.K. <https://orcid.org/0009-0005-1069-4645>

Davletov R.R. <https://orcid.org/0000-0002-9191-4128>

Nurjabov A.I. <https://orcid.org/0000-0002-8026-9944>

Asameddinov N.K. <https://orcid.org/0000-0001-5225-1539>

Republic of specialized oncology and radiology Scientific and practical medical center Uzbekistan
g. Tashkent, ul. Farobi, 383 tel: +998(71) 246-05-13 E-mail: info@cancercenter.uz

✓ Resume

The index of the dynamics of morbidity and mortality from malignant bone neoplasms in the Republic of Uzbekistan was carried out in this study. Based on data from the State Cancer Register, it was established that more than 25,000 new cases of malignant tumors were registered annually in the country, of which about 320 cases (1.3%) are tumors of bone tissue. Over the past decade, a steady downward trend has been observed in both the absolute number of cases and in morbidity and mortality rates per 100,000 population among both men and women. The largest proportion of patients with malignant bone tumors belongs to the 20–44-year old age group. About 3,000 patients with this diagnosis are currently under dispensary observation in Uzbekistan. The results obtained indicate a decrease in the prevalence and lethality of malignant bone tumors during the study period. At the same time, significant age-related differences in the structure of oncological morbidity were revealed, which requires further in-depth study of risk factors and improvement of preventive measures.

Keywords: malignant bone tumor, morbidity, mortality, epidemiology.

Dolzarbliigi

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma‘lumotlariga ko‘ra, suyaklarning havfli o‘smalari (HO‘) bilan kasallanish ko‘rsatkichi har 100 000 aholiga 1,0 ni, o‘lim ko‘rsatkichi esa har 100 000 aholiga 0,5 ni tashkil etadi [2, 4, 12].

Suyak havfli o‘smalarining tarqalishini o‘rganish skrining, diagnostika va davolash bo‘yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Surveillance, Epidemiology, and End Results (SEER) ma‘lumotlar bazasi kasallanish tendensiyalari haqida ma‘lumot berishda muhim rol o‘ynaydi [11]. Milliy Saraton Instituti tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan ushbu ma‘lumotlar bazasi AQSh aholining taxminan 34,6% ini qamrab oluvchi populyatsion saraton registrilaridan onkologik kasallanish va yashovchanlik ko‘rsatkichi haqida ma‘lumotlarni to‘playdi va e‘lon qiladi [13]. Adabiyotlar sharhi vizualizatsiya usullarining rivojlanishi va tibbiyot hodimlari o‘rtasida xabardorlikning oshishi tufayli suyak HO‘larining kasallanish ko‘rsatkichlari ortib borayotganini ko‘rsatadi [4, 7, 9].

Suyak HO‘larining kasallanish ko‘rsatkichlari turli populyatsiyalar va mintaqalarda sezilarli darajada farq qiladi. SEER ma‘lumotlar bazasiga ko‘ra, AQShda birlamchi yomon sifatli suyak o‘smalarining umumiy kasallanish ko‘rsatkichi yiliga har 100 000 aholiga 0,9 ni tashkil etadi [14, 15]. Osteosarkoma barcha birlamchi suyak HO‘larining taxminan 35% ini, keyingi o‘rinda xondrosarkoma (30%) va Yuing sarkomasi (16%) ni tashkil etadi [8, 9]. Dunyo miqyosida suyak HO‘larining kasallanish darajasi geografik mintaqaga, shuningdek boshqa omillarga ko‘ra farqlanadi. Masalan, ayrim Osiyo mamlakatlarida osteosarkoma bilan kasallanish G‘arb mamlakatlariga nisbatan yuqoriroq [10]. Bu holat genetik omillar va atrof-muhit ta‘siri bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin [9]. Suyak HO‘larining rivojlanishiga bir nechta xavf omillari aniqlangan. Yosh muhim xavf omili bo‘lib, ayrim turdagi suyak HO‘lari ma‘lum yosh guruhlarida ko‘proq uchraydi. Shuningdek, ayrim turlari erkaklarda ayollarga nisbatan ko‘proq kuzatiladi [3, 5, 6].

Statistik ma‘lumotlar saratonga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularning samaradorligini monitoring qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida suyak HO‘larining kasallanishi va o‘lim ko‘rsatkichlari bo‘yicha batafsil tahlil keltirilgan.

Tadqiqot maqsadi: O‘zbekiston Respublikasida suyaklarning HO‘ bo‘yicha kasallanish va o‘lim ko‘rsatkichlarini tahlil qilish.

Materiallar va metodlar.

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasida barcha suyak HO` holatlari bo'yicha onkologik muassasalar tomonidan taqdim etilgan hisobot ma'lumotlari olindi. Ushbu ma'lumotlar Sog'liqni saqlash vazirligining tasdiqlangan davlat hisob-hisobot hujjatlarining 7-sonli shakli — "Yomon sifatli o'simtalar bilan kasallanish to'g'risida ma'lumotlar"ga muvofiq 2016–2024-yillar davrini o'z ichiga oladi. Barcha ko'rsatkichlarni hisoblash uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining viloyatlar kesimida keltirilgan aholining o'rtacha yillik soni haqidagi ma'lumotlardan foydalanildi.

Natijalar va tahlillar

O'zbekistonda har yili 25 000 dan ortiq yangi HO` holatlari qayd etiladi va ulardan 320 dan ortig'i (1,3%) suyak HO` lariga to'g'ri keladi. 2016–2024-yillar davomida suyak HO` holatlari sonini o'rganish va tahlil qilish natijasida Respublika bo'ylab jami 3 116 ta yangi holat va 2 141 ta o'lim kuzatilgan, bu mos ravishda shu davrdagi barcha yangi aniqlangan va HO` dan vafot etganlar sonining 1,5% va 1,7% ini tashkil qiladi [1]. 2024 yilda onkologik kasalliklar umumiy tarkibida suyak HO`lari 22-o'rinni, havfli o'smalardan o'lim umumiy tarkibida esa 20-o'rinni egallagan (1-jadval).

1- jadval.

2024-yilda O'zbekiston Respublikasida kasallanish va o'lim tuzilmasi

Havfli o'sma kasalliklari	Kasallanish ko'rsatkichi		O'lim ko'rsatkichi	
	Umumiy soni	birlamchi aniqlanganlar % ida	Umumiy soni	birlamchi aniqlanganlar % ida
Sut bezi saratoni	4757	16,8	1800	11,9
Yog'on ichak saratoni	2245	7,9	1038	6,9
Meda saratoni	2070	7,3	1452	9,6
Bachadon bo'yni saratoni	1970	6,9	824	5,5
O'pka saratoni	1742	6,1	1314	8,7
Bosh miya havfli o'smalari	1221	4,3	655	4,3
Tuxumdon saratoni	1131	4,0	522	3,5
Jigar saratoni	1093	3,9	913	6,1
Teri havfli o'smasi	942	3,3	337	2,2
Bachadon tanasi havfli o'smasi	935	3,3	328	2,2
Buyrak saratoni	811	2,9	374	2,5
Qizilo'ngach saratoni	784	2,8	610	4,0
Meda osti bezi saratoni	737	2,6	543	3,6
Prostat bezi saratoni	704	2,5	403	2,7
Og'iz bo'shlig'I va halqum aniq lokalizatsiyasi ko'rsatilmagan soha havfli o'smalari	697	2,5	367	2,4
Siydik qopi saratoni	649	2,3	293	1,9
Nohodjkon limfomalari	609	2,1	268	1,8
Qalqonsimon bez saratoni	543	1,9	126	0,8
Leykozlar	482	1,7	208	1,4
Yumshoq to'qima havfli o'smalari	437	1,5	231	1,5
Aniq lokalizatsiyaga ega bo'lmagan	337	1,2	258	1,7
Suyak havfli o'smalari	325	1,1	216	1,4
Havfli limfomalar	269	0,9	159	1,1
Hiqildoq saratoni	261	0,9	150	1,0
O't qopi saratoni	240	0,8	151	1,0
Qorin parda orti va qorin parda havfli o'smalari	149	0,5	101	0,7
Milk saratoni	136	0,5	76	0,5
Teri melanomasi	133	0,5	70	0,5
Ingichka ichak saratoni	132	0,5	66	0,4
Og'iz tubi saratoni	83	0,3	61	0,4

So'nggi 9 yil ichida suyak HO'lari bilan bog'liq yangi va o'lim holatlari soni kamayish tendensiyasiga ega, shuningdek har 100 000 aholiga to'g'ri keladigan kasallanish va o'lim ko'rsatkichlari ham yillar davomida har ikki jins orasida pasayib bormoqda. Biroq shuni ta'kidlash kerakki, suyak HO'lari bilan bog'liq yangi va o'lim holatlari erkaklarda ayollarga nisbatan yuqoriroq (2-jadval).

2-jadval.

2016–2024-yillar davomida O'zbekistonda suyak HO'lari bo'yicha kasallanish va o'lim ko'rsatkichlarining erkaklar va ayollar orasidagi dinamikasi

Davr	Kasallanish ko'rsatkichi				O'lim ko'rsatkichi			
	Erkaklar		Ayollar		Erkaklar		Ayollar	
	Umumiy soni	100 000 aholi soniga	Umumiy soni	100 000 aholi soniga	Umumiy soni	100 000 aholi soniga	Umumiy soni	100 000 aholi soniga
2016	205	1,3	186	1,2	177	1,1	142	0,9
2017	213	1,3	149	0,9	150	0,9	135	0,8
2018	222	1,4	148	0,9	139	0,8	108	0,7
2019	215	1,3	136	0,8	131	0,8	78	0,5
2020	172	1,0	153	0,9	135	0,8	102	0,6
2021	178	1,0	127	0,7	142	0,8	102	0,6
2022	191	1,1	152	0,9	105	0,6	89	0,5
2023	201	1,1	143	0,8	114	0,6	76	0,4
2024	198	1,1	127	0,7	138	0,7	78	0,4

3-jadval.

2016–2024-yillar davomida O'zbekistonda suyak HO'lari bilan yangi aniqlangan holatlarning viloyatlar kesimida dinamikasi

Hududlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	391	362	370	351	325	305	343	344	325
Toshkent shahri	32	26	34	17	16	28	32	43	34
Qoraqalpog'iston Respublikasi	30	41	24	25	29	21	26	23	20
Xorazm viloyati	24	31	20	9	21	16	14	16	13
Farg'ona viloyati	49	35	37	38	32	44	41	45	44
Toshkent viloyati	49	51	58	39	30	32	35	28	31
Surxondaryo viloyati	33	27	21	52	31	25	21	27	25
Sirdaryo viloyati	4	8	8	6	7	5	5	4	3
Samarqand viloyati	29	33	27	42	39	28	36	21	33
Namangan viloyati.	25	13	24	22	18	22	17	20	22
Navoiy viloyati	14	8	19	7	15	9	17	12	10
Qashqadaryo viloyati	31	29	27	30	18	23	24	18	22
Jizzah viloyati	37	24	28	16	14	14	8	31	22
Buxoro viloyati	10	14	22	14	32	11	30	20	18
Andijon viloyati	24	22	21	34	23	27	37	36	28

Respublika viloyatlari bo'yicha suyak HO'lari bilan kasallanish holatlarini ko'rib chiqilganda, 2016 yilda eng past kasallanish ko'rsatkichlari Sirdaryo, Buxoro va Andijon viloyatlarida qayd etilgan bo'lib, ular mos ravishda har 100 000 aholiga 0,5; 0,5 va 0,8 ni tashkil etgan. 2024 yilga kelib esa eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo (0,3), Qashqadaryo (0,6) va Namangan (0,7) viloyatlarida kuzatilgan.

Shuni qayd etish kerakki, 2024 yilda har 100 000 aholiga eng yuqori kasallanish darajasi Jizzax (1,4), Toshkent shahri (1,2) va Farg'ona (1,1) viloyatlarida aniqlangan.

Umuman olganda, Respublika bo'yicha suyak HO'lari bilan bog'liq yangi aniqlangan holatlar soni hamda kasallanish ko'rsatkichi kamayish tendensiyasiga ega (3- va 4-jadvallar).

4 - jadval.

2016–2024-yillar davrida O'zbekistonda suyak HO'lari bo'yicha har 100 000 aholiga to'g'ri keladigan kasallanish ko'rsatkichining dinamikasi (viloyatlar kesimida)..

Hududlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	1,2	1,1	1,1	1,1	1,0	0,9	1,0	0,9	0,9
Toshkent shahri	1,4	1,1	1,4	0,8	1,0	1,5	1,2	1,5	1,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1,7	2,3	1,3	1,3	1,5	1,1	1,3	1,1	1,0
Xorazm viloyati	1,4	1,7	1,1	0,5	1,1	0,8	0,7	0,8	0,6
Farg'ona viloyati	1,4	1,0	1,0	1,0	0,9	1,2	1,0	1,1	1,1
Toshkent viloyati	1,7	1,8	2,0	1,3	1,0	1,1	1,2	0,9	1,0
Surxondaryo viloyati	1,3	1,1	0,8	2,0	1,2	0,9	0,7	0,9	0,9
Sirdaryo viloyati	0,5	1,0	1,0	0,7	0,8	0,6	0,6	0,4	0,3
Samarqand viloyati	0,8	0,9	0,7	1,1	1,0	0,7	0,9	0,5	0,8
Namangan viloyati.	0,9	0,5	0,9	0,8	0,6	0,8	0,6	0,7	0,7
Navoiy viloyati	1,5	0,8	2,0	0,7	1,5	0,9	1,6	1,1	0,9
Qashqadaryo viloyati	1,0	0,9	0,8	0,9	0,5	0,7	0,7	0,5	0,6
Jizzah viloyati	2,8	1,8	2,1	1,2	1,0	1,0	0,5	2,1	1,4
Buxoro viloyati	0,5	0,8	1,2	0,7	1,7	0,6	1,5	1,0	0,9
Andijon viloyati	0,8	0,7	0,7	1,1	0,7	0,8	1,1	1,1	0,8

5-jadvalda suyak HO'lari bilan yangi aniqlangan bemorlarning jins va yosh bo'yicha taqsimoti keltirilgan. Umuman olganda, tadqiqot davri davomida erkak bemorlar orasida 14 yoshgacha bo'lganlar — 253 nafari (14,4%), 15–17 yosh — 122 (6,8%), 18–19 yosh — 71 (4,0%), 20–44 yosh — 552 (30,8%), 45–65 yosh — 533 (29,7%) va 65 yoshdan kattalar — 259 (14,4%)ni tashkil etdi.

Ayollar orasida esa 14 yoshgacha bo'lgan bemorlar — 207 (15,7%), 15–17 yosh — 56 (4,2%), 18–19 yosh — 44 (3,3%), 20–44 yosh — 392 (29,7%), 45–65 yosh — 413 (31,2%) va 65 yoshdan kattalar — 209 (15,8%)ni tashkil etdi (2-jadval).

Shuni ta'kidlash joizki, suyak HO'lari bilan kasallanganlar ulushi erkaklar ham, ayollar orasida ham nisbatan yosh bo'lgan 20–44 yosh toifasida ancha yuqori.

**2016–2021-yillar davomida O‘zbekistonda suyak HO‘lari bilan yangi aniqlangan holatlarning
erkaklar va ayollar orasida yosh bo‘yicha taqsimoti**

Erkaklar

Yillar	Ko‘rsatkich	0-4	5-9	10-14	15-17	18-19	20-44	45-64	65 va katta
2016	Mutlaq son	8	4	15	14	9	71	62	22
	ulushi	3,9	2,0	7,3	6,8	4,4	34,6	30,2	10,7
2017	Mutlaq son	2	9	16	13	7	69	74	23
	ulushi	0,9	4,2	7,5	6,1	3,3	32,4	34,7	10,8
2018	Mutlaq son	6	6	19	15	13	67	68	28
	ulushi	2,7	2,7	8,6	6,8	5,9	30,2	30,6	12,6
2019	Mutlaq son	3	12	15	13	10	67	65	30
	ulushi	1,4	5,6	7,0	6,0	4,7	31,2	30,2	14,0
2020	Mutlaq son	5	8	6	15	6	52	57	23
	ulushi	2,9	4,7	3,5	8,7	3,5	30,2	33,1	13,4
2021	Mutlaq son	7	6	16	11	6	67	42	23
	ulushi	3,9	3,4	9,0	6,2	3,4	37,6	23,6	12,9
2022	Mutlaq son	6	8	13	13	6	61	53	31
	ulushi	3,1	4,2	6,8	6,8	3,1	31,9	27,7	16,2
2023	Mutlaq son	7	11	19	11	5	47	63	38
	ulushi	3,5	5,5	9,5	5,5	2,5	23,4	31,3	18,9
2024	Mutlaq son	4	6	21	17	9	51	49	41
	ulushi	2,0	3,0	10,6	8,6	4,5	25,8	24,7	20,7

Ayollar

Yillar	Ko‘rsatkich	0-4	5-9	10-14	15-17	18-19	20-44	45-64	65 va katta
2016	Mutlaq son	5	5	13	8	8	60	56	31
	ulushi	2,7	2,7	7,0	4,3	4,3	32,3	30,1	16,7
2017	Mutlaq son	3	6	14	6	10	38	41	31
	ulushi	2,0	4,0	9,4	4,0	6,7	25,5	27,5	20,8
2018	Mutlaq son	4	9	14	7	4	42	45	23
	ulushi	2,7	6,1	9,5	4,7	2,7	28,4	30,4	15,5
2019	Mutlaq son	7	5	8	5	6	36	47	22
	ulushi	5,1	3,7	5,9	3,7	4,4	26,5	34,6	16,2
2020	Mutlaq son	4	9	17	9	2	48	47	17
	ulushi	2,6	5,9	11,1	5,9	1,3	31,4	30,7	11,1
2021	Mutlaq son	2	6	13	6	2	38	45	15
	ulushi	1,6	4,7	10,2	4,7	1,6	29,9	35,4	11,8
2022	Mutlaq son	4	6	13	6	4	49	47	23
	ulushi	2,6	3,9	8,6	3,9	2,6	32,2	30,9	15,1
2023	Mutlaq son	2	6	17	5	3	36	51	23
	ulushi	1,4	4,2	11,9	3,5	2,1	25,2	35,7	16,1
2024	Mutlaq son	1	6	8	4	5	45	34	24
	ulushi	0,8	4,7	6,3	3,1	3,9	35,4	26,8	18,9

O'simta jarayonining tarqalish darajasi onkologik kasalliklarning prognozini belgilovchi muhim omillardan biridir. Shuni ta'kidlash kerakki, tadqiqot davrida I–II bosqichda aniqlangan bemorlar ulushi 2016 yildagi 53,1% dan 2024 yilda 67,1% gacha oshgan. III bosqichdagi bemorlar ulushi esa 36,2% dan 19,1% gacha kamaygan. Tadqiqot davri davomida belgilab bo'lmagan bosqichdagi bemorlar ulushi yetarlicha yuqori bo'lib, o'rtacha 4,1% ni tashkil etgan (6-jadval).

6-jadval.

2016–2024-yillar davomida O'zbekistonda suyak HO'lari bilan kasallangan bemorlarning bosqichlar bo'yicha taqsimoti

Yillar	I		II		III		IV		Aniqlanmagan bosqich	
	Mutlaq son	%	Mutlaq son	%	Mutlaq son	%	Mutlaq son	%	Mutlaq son	%
2016	13	3,3	194	49,7	142	36,2	42	10,7	0	0,0
2017	17	4,7	199	54,8	100	27,5	44	12,1	2	0,6
2018	34	9,2	182	49,2	74	20,0	45	12,2	35	9,5
2019	33	9,4	196	55,8	72	20,5	39	11,1	11	3,1
2020	17	5,2	192	59,1	67	20,6	38	11,7	11	3,4
2021	25	8,2	161	52,8	67	22,0	33	10,8	19	6,2
2022	20	5,8	221	64,4	67	19,5	25	7,3	10	2,9
2023	21	6,1	215	62,5	55	16,0	32	9,3	21	6,1
2024	20	6,2	198	60,9	62	19,1	27	8,3	18	5,5

O'zbekistonda suyak HO'lari bilan ro'yxatda turgan bemorlar soni qariyb 3 000 nafarga teng bo'lib, bu barcha HO' bemorlarining 2,7% ini tashkil qiladi. Har yili ro'yxatdagi bemorlar soni kamayish tendensiyasiga ega bo'lib, bu 7-jadvalda ko'rsatilgan.

7-jadval.

2016–2024-yillar davomida O'zbekistonda ro'yxatda turgan suyak HO'lari bilan bemorlar dinamikasi

Yillar	Yil ohirida hisobda turganlar		
	Mutlaq son	100 000 aholi soniga	Kontingentlar yig'ilish indeksi
2016	3585	11,2	9,2
2017	3192	9,9	8,8
2018	2821	8,6	7,6
2019	2812	8,5	8,0
2020	2866	8,5	8,8
2021	2789	8,1	9,1
2022	2828	7,9	8,2
2023	2933	8,0	8,5
2024	2891	7,8	8,9

Xulosa

O'tkazilgan ishlar natijasida shuni ta'kidlash mumkinki, O'zbekistonda har yili suyak HO'lari bilan 300 dan ortiq yangi holat va 200 dan ortiq o'lim holatlari qayd etiladi. Erkaklar orasida kasallanish darajasi ayollarga nisbatan biroz yuqoriroq. Shuningdek, 20–44 yosh toifasida suyak HO'lari bilan kasallangan bemorlar soni nisbatan katta. Shuni ham ta'kidlash kerakki, yillar davomida dastlabki bosqichlardagi suyak HO'lari bilan bemorlar ulushi oshib bormoqda, katta va rivojlangan shakllardagi bemorlar ulushi esa kamaymoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi SSV davlat idoraviy hisobot shakllari "Yomon sifatli o'simtalar bilan kasallanish to'g'risida ma'lumotlar" – 7-shakl, 2016–2024-yillar.
2. Valiev A.K., Tararykova A.A., Teplyakov V.V., Musaeu E.R., Rogozhin D.V., Sushentsov E.A. va boshqalar. Suyaklarning yomon sifatli o'simtalarini dorivor davolash bo'yicha amaliy tavsiyalar. RUSSCO amaliy tavsiyalari, 1-qism. Yomon sifatli o'simtalar, 2023 (jild 13), 3s2, b. 335–355.
3. Valiev A.K., Tararykova A.A., Teplyakov V.V., Musaeu E.R., Rogozhin D.V., Sushentsov E.A., Machak G.N., Konev A.A., Fedorova A.V., Fedoseenko D.I. Birlamchi yomon sifatli suyak o'simtalarini. Yomon sifatli o'simtalar. 2024;14(3s2-2):367-392. <https://doi.org/10.18027/2224-5057-2024-14-3s2-1.2-14>
4. Merabishvili V.M., Chepik O.F., Merabishvili E.N. Suyaklarning yomon sifatli o'simtalarini. Kasallanish, o'lim, hisob-kitobning ishonchliligi, gistoanatomik shakllar hisobga olingan bemorlarning omon qolishi // Sibir onkologik jurnali. 2015. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zlokachestvennye-novoobrazovaniya-kostey-zabolevaemost-smertnost-dostovernost-ucheta-vyzhivaemost-bolnyh-s-uchetom-gistologicheskikh> (kirish sanasi: 01.07.2025).
5. Basu M.A., Chawla S.P. Suyakning gigant hujayrali o'simtasi: yangilangan ma'lumot. Curr Oncol Rep. 2021;23:51.
6. Bielack S.S., Blattmann C., Borkhardt A. va boshqalar. Osteosarkoma va o'lim sabablari: hamkor osteosarkoma tadqiqot guruhi (COSS)dagi 1520 vafot etgan bemorlarning hisobotlari. Eur J Cancer. 2022;176:50–57.
7. Choi J.H., Ro J.Y. 2020-yilgi WHO suyak o'simtalarini tasnifi: yangilangan sharh. Adv Anat Pathol. 2021;28:119–138.
8. Cole S., Gianferante D.M., Zhu B., Mirabello L. Osteosarkoma: 1975–2017-yillar oralig'ida SEER ma'lumotlar bazasi asosida kuzatuv, epidemiologiya va yakuniy natijalar tahlili. Cancer. 2022;128:2107–2118.
9. Franchi A. Suyak o'simtalarining epidemiologiyasi va tasnifi. Clin Cases Miner Bone Metab. 2012 May;9(2):92–95. Epub 2012 Sep 30. PMID: 23087718; PMCID: PMC3476517.
10. Klangjorhor J., Pongnikorn D., Phanphaisarn A. va boshqalar. Tailandda suyak sarkomasi bilan kasallangan bemorlar orasida kasallanish va omon qolish ko'rsatkichlari tahlili: 2001–2015-yillar populyatsiyaga asoslangan saraton registrlari hisobotlari. Cancer Epidemiol. 2022;76:102056.
11. Mirzaei S., Saghari S., Bassiri F., Raesi R., Zarrabi A., Hushmandi K., Sethi G., Tergaonkar V. NF-κB saraton metastazi va davolashga javobning regulyatori sifatida: epitelial-mezenximal o'tishga e'tibor. J Cell Physiol. 2022;237(7):2770–2795.
12. National Comprehensive Cancer Network. NCCN Guidelines. <https://www.nccn.org/guidelines/guidelines-detail?category=1&id=1418>
13. Viale P.H. American Cancer Society faktlari va raqamlar: 2020 nashri. J Adv Practitioner Oncol. 2020;11(2):135.
14. Xu Y., Shi F., Zhang Y., Yin M., Han X., Feng J., Wang G. Yomon sifatli suyak o'simtalarini bilan bemorlarning 20 yillik kasallanish, yangi holatlar, o'lim va omon qolish natijalari. Int J Cancer. 2024;154(2):226–240.
15. Yu K., Chen Y., Tian Y., Kang H., Song K., Dong Y., Peng R., Li F. Birlamchi yomon sifatli suyak o'simtalarini bilan bemorlar orasida o'limga olib keluvchi pnevmoniya xususiyatlari, kasallanish va xavf omillari: SEER ma'lumotlar bazasiga asoslangan kuzatuvchi tadqiqot. Transl Cancer Res. 2021;10(8):3659.

Qabul qilingan sana 20.11.2025